

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№ 6
maxsus son

2025
DEKABR



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU

**BAKALAVR
TALABALARINIG
MAQOLALARI
TO'PLAMI**

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 13 sahifa,
dekabr, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afurovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASHNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY VA MOLIYAVIY MEXANIZMLARI.....	8
--	---

Inatullayeva Intizor Jamshid qizi, Uchqun Yunusovich O'roqov

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS



YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASHNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY VA MOLIYAVIY MEXANIZMLARI

Inatullayeva Intizor Jamshid qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Moliya fakulteti talabasi

E-mail: inatullayevaintizor@gmail.com

Ilmiy rahbar:

Uchqun Yunusovich O'roqov

“Moliya va moliyaviy texnologiyalar” kafedrası professori

Annotatsiya: Mazkur maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirishning iqtisodiy va moliyaviy mexanizmlari tahlil qilinadi hamda chiqindilar hajmining ortib borishi bilan bog'liq ekologik va iqtisodiy muammolar, ularni qayta ishlash orqali resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari o'rganiladi. Shuningdek, davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash, investitsiya va rag'batlantirish mexanizmlarining chiqindilarni qayta ishlash samaradorligiga ta'siri baholanadi. Tadqiqot natijalari yashil iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga joriy etish orqali barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkinligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, chiqindilarni boshqarish, chiqindilarni qayta ishlash, ikkilamchi xomashyo, ekologik barqarorlik, iqtisodiy samaradorlik, moliyaviy mexanizmlar, yashil texnologiyalar, barqaror rivojlanish.

Abstract: This article analyzes the economic and financial mechanisms for developing a waste recycling system under the conditions of a green economy, as well as examines the environmental and economic problems associated with the increasing volume of waste and the opportunities for efficient use of resources through recycling. In addition, the impact of state financial support, investment, and incentive mechanisms on the efficiency of waste recycling is assessed. The research results demonstrate that the implementation of green economy principles in practice makes it possible to achieve sustainable socio-economic development.

Keywords: green economy, waste management, waste recycling, secondary raw materials, environmental sustainability, economic efficiency, financial mechanisms, green technologies, sustainable development.

Аннотация: В данной статье анализируются экономические и финансовые механизмы развития системы переработки отходов в условиях зелёной экономики, а также рассматриваются экологические и экономические проблемы, связанные с ростом объёмов отходов, и возможности эффективного использования ресурсов путём их переработки. Кроме того, оценивается влияние государственной финансовой поддержки, инвестиционных и стимулирующих механизмов на эффективность переработки отходов. Результаты исследования показывают, что внедрение принципов зелёной экономики на практике позволяет достичь устойчивого социально-экономического развития.

Ключевые слова: зелёная экономика, управление отходами, переработка отходов, вторичное сырьё, экологическая устойчивость, экономическая эффективность, финансовые механизмы, зелёные технологии, устойчивое развитие.

KIRISH

So'nggi yillarda jahon miqyosida sanoatlashtirish va urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, shuningdek, iste'mol hajmining ortib borishi chiqindilar bilan bog'liq muammolarni yanada keskinlashtirmoqda. Chiqindilarni



boshqarish hamda ularni qayta ishlash masalasi bugungi kunda nafaqat ekologik, balki muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda har yili 2 milliard tonnadan ortiq qattiq maishiy chiqindilar hosil bo'ladi va 2050-yilga kelib, bu ko'rsatkich 70 foizga oshishi kutilmoqda. Chiqindilarning aksariyati utilizatsiya qilinadi yoki chiqindixonalarga tashlanadi. Jumladan, chiqindilarning qariyb 37 foizi chiqindixonalarga, 8 foizi esa chiqindixona gazini yig'ish tizimiga ega sanitariya poligonlariga joylashtiriladi. Avstriyaning CSIRO milliy ilmiy agentligi va Toronto universiteti (Kanada) olimlari tomonidan dunyo okeani tubida qancha plastik chiqindilar to'planganini aniqlash maqsadida tadqiqot o'tkazilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, chiqindilarning umumiy hajmi 11 million tonnagacha yetishi mumkin. Jahon bankining so'nggi hisobotiga ko'ra, 2050-yilga borib, global chiqindilar ishlab chiqarish yiliga 3,4 milliard tonnagacha oshishi kutilmoqda. Bu esa 2016-yilgi darajaga nisbatan 70 foizga ko'p ekanini bildiradi [3].

O'zbekiston Respublikasida chiqindilarni boshqarish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish masalalariga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil, 21-apreldagi "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni¹ [1] hamda "2017–2021 yillarda maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori² [2] bu boradagi ishlar ko'lamini yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda. Mazkur Farmonga binoan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi hamda uning hududiy boshqarmalarida chiqindilarning hosil bo'lishi, ularni to'plash, saqlash, tashib ketish, utilizatsiya qilish, qayta ishlash, ko'mish va realizatsiya qilish bo'yicha nazorat inspeksiyalari tashkil etilgan.

Mazkur maqolaning maqsadi yashil iqtisodiyot sharoitida chiqindilarni qayta ishlashni rivojlantirishning iqtisodiy hamda moliyaviy mexanizmlarini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot sharoitida chiqindilarni qayta ishlashni rivojlantirish ekologik muammolar bilan bir qatorda muhim iqtisodiy vazifa hisoblanadi. Chiqindilarni qayta ishlashni kengaytirish va ushbu sohada zamonaviy texnologiyalarni joriy etish samarali iqtisodiy hamda moliyaviy mexanizmlarni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, yashil moliyalashtirish mexanizmlari chiqindilarni qayta ishlashni rivojlantirishning asosiy moliyaviy tayanchi sifatida namoyon bo'ladi. Yashil moliyalashtirish ekologik jihatdan barqaror loyihalarni, jumladan, chiqindilarni qayta ishlash, qayta foydalanish va chiqindilardan muqobil energiya olishga qaratilgan tashabbuslarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda keltirilgan ta'riflarni quyidagicha guruhlash mumkin: birinchi guruhga xos umumiy jihat shundan iboratki, atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq texnologik jarayonlar, loyihalar va dasturlarni moliyalashtirishning keng qamrovli usullari "yashil moliya" sifatida talqin etiladi. Ikkinchi guruh ta'riflarda esa "yashil moliya" ekologik tarkibiy elementga ega bo'lgan moliyaviy mahsulotlar (dastaklar) va xizmatlar (kreditlar, obligatsiyalar, aksiyalar va boshqalar) sifatida tushuntiriladi [4].

"Yashil iqtisodiyot" sohasida turli tadqiqotlar olib borish bilan shug'ullanuvchi xususiy kompaniyalar "yashil moliyalashtirish" tushunchasining mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. Jumladan, Bloomberg New Energy Finance kompaniyasi mutaxassislari "yashil moliya" atamasi "yashil investitsiyalar" bilan bir qatorda qo'llanilishini, ammo amaliyotda "yashil moliyalashtirish" investitsiyalarga nisbatan kengroq tushuncha sifatida ishlatilishini ta'kidlaydi. Bundan kelib chiqadiki, "yashil moliyalashtirish" — bu atrof-muhitga ta'sir etuvchi omillarni har tomonlama tahlil qilgan holda, ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan investitsiya va kreditlash faoliyatining barcha shakllarini qamrab oluvchi samarali moliyaviy mexanizmdir [5].

Yashil iqtisodiyot sharoitida chiqindilarni qayta ishlashni rivojlantirish davlat moliyasining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu jarayonda byudjetlararo munosabatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, A. Vahobov va X. Jamolovlarning "Budjetlararo munosabatlarni muvofiqlashtirish" asarida byudjetlararo munosabatlarga quyidagicha ta'rif berilgan: "Budjetlararo munosabatlar — budjet mexanizmining muhim ajralmas elementi bo'lib, mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilmalari subyektlari o'rtasida markaziy boshqaruv tomonidan moliyaviy oqimlarni oqilona taqsimlash jarayonini tartibga solishni ta'minlaydi. Bundan tashqari, markaziy hukumatning aniq funksiyalarini davlat boshqaruvining turli darajalarida huquq va majburiyatlarni o'zaro taqsimlash orqali bajarish uchun davlat budjetida jamlangan pul mablag'larining bir qismini ushbu subyektlar o'rtasida qayta taqsimlash munosabatlarini ham o'z ichiga oladi" [6]. Byudjetlararo moliyaviy mexanizmlar hududlar kesimida ekologik barqarorlikni ta'minlash va chiqindilarni qayta ishlash loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim moliyaviy asosi hisoblanadi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.04.2017 yildagi PF-5024-son <https://lex.uz/docs/-3174498>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 21.04.2017 yildagi PQ-2916-son <https://lex.uz/docs/-3174890>

Shunday qilib, yashil iqtisodiyot sharoitida chiqindilarni qayta ishlashni rivojlantirishda moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, mavjud moliyaviy instrumentlardan samarali foydalanish hamda yangi yashil moliyaviy vositalarni joriy etish masalalari, shuningdek, byudjetlararo munosabatlarni yanada rivojlantirish alohida dolzarflik kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot yashil iqtisodiyot sharoitida chiqindilarni qayta ishlash jarayonlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda asosan nazariy va tahliliy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida yashil iqtisodiyot va chiqindilarni boshqarish masalalariga oid ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ochiq manbalardagi ma'lumotlar o'rganildi va umumlashtirildi.

Tahlil jarayonida mantiqiy tahlil va sintez usullari qo'llanilib, chiqindilarni qayta ishlashning iqtisodiy va ekologik jihatlari o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi. Shuningdek, tizimli yondashuv asosida chiqindilarni qayta ishlash jarayonlarining barqaror rivojlanishga ta'siri baholandi. Tadqiqot natijalarini asoslashda tavsifiy tahlil usulidan foydalanilib, rivojlangan davlatlar tajribasi hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan amaliyot umumiy jihatdan yoritildi. Olingan natijalar asosida umumlashtirish va xulosalash usullari yordamida chiqindilarni qayta ishlashni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil iqtisodiyot sharoitida chiqindilar iqtisodiy resurs sifatida baholanadi. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi iqtisodiy o'sishni ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan bo'lib, chiqindilarni qayta ishlash ushbu konsepsiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Chiqindilarni qayta ishlash orqali ikkilamchi xomashyo bazasini shakllantirish, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Chiqindilarni qayta ishlavchi va utilizatsiya qiluvchi korxonalariga kamchiqimli texnologiyalarni joriy etish sohani rivojlantirishning eng samarali yo'llaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda 300 ga yaqin korxonalar qog'oz, plastik, rezina, shisha, metall va boshqa ikkilamchi chiqindilarni qayta ishlamoqda. Misol uchun, "Toshrangmetzavod" aksiyadorlik jamiyati rangli metallarni yig'ish va qayta ishlash sohasida ixtisoslashgan korxonaga bo'lib, zamonaviy asbob-uskunalar va ilg'or texnologiyalar bilan ta'minlangan [7].

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda chiqindilarni energiyaga aylantirish samarali infratuzilma asosida amalga oshiriladi. Masalan, Fransiyada qayta ishlanmaydigan chiqindilarni yoqishga ixtisoslashgan 130 ga yaqin zavod mavjud. Ushbu jarayonda hosil bo'lgan kul yo'l qurilishida ishlatiladi, ishlab chiqarilgan issiqlik esa aholini isitishda qo'llaniladi. Ayrim korxonalar yer ostida joylashgan bo'lib, zamonaviy texnologiyalar tutun va noxush hidlarning tarqalishining oldini oladi. Shvetsiya tajribasi ham chiqindilarni energiyaga aylantirishning yuqori samaradorligini ko'rsatadi. Mamlakatda WtE zavodlari orqali chiqindilarning katta qismi yoqilib, energiyaga aylantiriladi, hosil bo'lgan kul va chiqindilardan esa foydali mahsulotlar olinadi. Shu bilan birga, kanalizatsiya chiqindilaridan metan asosidagi biogaz ishlab chiqarilib, transport yoqilg'isi sifatida ishlatiladi [8].

Germaniyaning chiqindilarni qayta ishlash sohasidagi tovar aylanmasi 70 milliard yevroni tashkil etadi. Ushbu tarmoqda 250 ming kishi ish bilan band. Yaponiyada chiqindilarning 70–75 foizi kuydiriladi, 25–30 foizi esa qayta ishlanadi. Yaponiya aholisi har yili 30 milliard dona paketdan foydalanadi. Chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini yuqori darajadagi dizaynga ega [9].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, chiqindilarni to'g'ri va samarali boshqarish inson salomatligini muhofaza qilishda muhim ahamiyatga ega. Organik va noorganik chiqindilar havoga, suvga hamda tuproqqa tushganda turli kasalliklar xavfini oshirishi mumkin, jumladan, respirator va teri kasalliklari, shuningdek, ichak va o'pka bilan bog'liq muammolar yuzaga keladi. Shu bilan birga, ayrim davlatlarda qo'llanilayotgan WtE texnologiyalari chiqindilarni xavfsiz energiyaga aylantirish orqali bunday salbiy ta'sirlarni sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qilmoqda. Natijada, chiqindilarni samarali boshqarish inson salomatligini himoya qilish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy foyda olish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyot sharoitida chiqindilarni qayta ishlash nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirishning ham muhim yo'nalishi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu sohani izchil rivojlantirish resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanishga erishishda muhim rol o'ynaydi. Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: davlat tomonidan chiqindilarni qayta ishlash loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish; xususiy sektorni investitsiya kiritishga jalb etish uchun samarali rag'batlantiruvchi iqtisodiy mexanizmlarni yaratish; yashil



texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishni kengaytirish va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash; chiqindilarni qayta ishlash tizimini izchil rivojlantirishga yo'naltirilgan strategik rejalashtirishni amalga oshirish.

Mazkur takliflar izchil amalga oshirilsa, chiqindilarni qayta ishlash sohasida samarali va barqaror rivojlanishga erishish imkoniyatlari yanada kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil, 21-aprelda imzolangan "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5024-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-3174498>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil, 21-apreldagi "2017–2021-yillarda maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2916-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-3174890>
3. Yashil iqtisodiyot: darslik / M. T. Butaboyev, N. Maxmudov, A. A. Kasimov. – Toshkent: "Innovatsion rivojlanish" nashriyot-matbaa uyi, 2025. – 293 bet.
4. *Low Carbon Green Growth Roadmap for Asia and the Pacific*. URL: <https://www.unescap.org/resources/low-carbon-green-growth-roadmap-asia-and-pacific>
5. Zadek, S., & Flynn, C. (2013). *South-Originating Green Finance: Exploring the Potential*. The Geneva International Finance Dialogues, UNEP FI, SDC, and IISD.
6. Vahobov, A., Jamolov, X. *Согласование межбюджетных отношений*. – Т.: "Moliya", 2002.
7. Yashil iqtisodiyot: darslik / M. T. Butaboyev, N. Maxmudov, A. A. Kasimov. – Toshkent: "Innovatsion rivojlanish" nashriyot-matbaa uyi, 2025. – 288 bet.
8. xs.uz rasmiy sayti. URL: <https://xs.uz>
9. Yashil iqtisodiyot: darslik / M. T. Butaboyev, N. Maxmudov, A. A. Kasimov. – Toshkent: "Innovatsion rivojlanish" nashriyot-matbaa uyi, 2025. – 294 bet.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

6-Maxsus son.

Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100